

KORXONALARDA MEHNAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA IQTISODIY TARAQQIYOT OMILLARINI OPTIMALLASHTIRISHDAGI IMKONIYATLARI

Ro‘ziyeva Charos Hazratkulovna

Turon universiteti Iqtisodiyot yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya: Maqolada mehnatning samaradorligini aniqlash imkonini beradigan optimal yo‘llar xususida fikr yuritiladi. Korxonalarda mehnat samaradorligini oshirishda iqtisodiy taraqqiyot omillarini optimallashtirishdagi imkoniyatlari keng hiosblanib ushbu maqolada shu haqida so‘z boradi. Iqtisodiy taraqqiyot milliy iqtisodiyotning muhim atributlarga egaligini ifodalaydigan tushunchadir. Bunda uning mahsuldorligi va barqarorligi darajasi diqqat markazida turadi. Ushbu tushuncha yordamida iqtisodiy imkoniyatlar bilan kishilarning ehtiyojlari o‘rtasidagi mutanosiblik baholanadi: bunday mutanosiblikning mavjudligi ravnaq belgisi, undan mosuvollik esa tanazzul yoxud turg‘unlik ifodasi sifatida tavsiflanadi. Maqolada o‘z faoliyatini zamonaviy tavsiyalar asosida yo‘lga qo‘yishga odatlangan firmalar ekologik jihatdan toza uskuna va jihozlarni xarid qilishga, ularning imkoniyatlaridan kengroq foydalanishga, shu yo‘l bilan resurslarni tejashga intilib kelishayotgani ham fikr yuritiladi.

***Kalit so‘zlar:** tejamkorlik, mehnatning samaradorligi, zamonaviy iqtisodiyot, tashkilot, kompaniya va firmalardagi mehnatning samarasi, ekologik muhit, resurslar, mahsulotlar, milliy iqtisodiyot.*

“THE POSSIBILITIES OF OPTIMIZING ECONOMIC DEVELOPMENT FACTORS IN ENHANCING LABOR EFFICIENCY IN ENTERPRISES”

Abstract. The article discusses optimal ways to determine labor efficiency. It highlights the broad opportunities for optimizing economic development factors in increasing labor efficiency at enterprises and focuses on this issue in detail. Economic

development is a concept that reflects the presence of important attributes within the national economy, where the level of productivity and stability occupies a central place. This concept helps assess the balance between economic opportunities and human needs: the existence of such proportionality is considered a sign of progress, while imbalance is characterized as an indicator of decline or stagnation. The article also emphasizes that firms accustomed to organizing their activities based on modern recommendations tend to purchase environmentally friendly equipment and technologies, make broader use of their capabilities, and thereby strive to save resources.

Keywords: Economy, labor efficiency, Modern economy, labor productivity in organizations, companies and firms, ecological environment, resources, products, national economy.

«ВОЗМОЖНОСТИ ОПТИМИЗАЦИИ ФАКТОРОВ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ТРУДА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ»

Аннотация: В статье рассматриваются оптимальные подходы к определению эффективности труда. Освещаются широкие возможности оптимизации факторов экономического развития в целях повышения эффективности труда на предприятиях, а также подробно анализируется данная проблема. Экономическое развитие представляет собой концепцию, отражающую наличие значимых характеристик в национальной экономике, где центральное место занимают производительность и стабильность. Данная концепция способствует оценке баланса между экономическими возможностями и потребностями человека; наличие такой пропорциональности рассматривается как признак прогресса, тогда как дисбаланс характеризуется как показатель упадка или стагнации. В статье также подчеркивается, что предприятия, организующие свою деятельность в соответствии с современными рекомендациями, стремятся внедрять экологически безопасное оборудование и технологии, более эффективно использовать имеющиеся возможности и тем самым обеспечивать экономию ресурсов.

Ключевые слова: Экономика, эффективность труда, современная экономика, производительность труда в организациях, компаниях и предприятиях, экологическая среда, ресурсы, продукция, национальная экономика.

Har qanday mamlakatda iqtisodiy ravnaq, ahamiyatli vazifalar ijrosi shu mamlakatda istiqomat qilayotgan kishilar mehnatining foydaliligi, jamiyat uchun nafdorligi va natijadorligidan turtki oladi. E'tiborli jihati shundaki, u iqtisodiy ravnaqqa hissa qo'shishi bilan bir qatorda boshqa omillar tabiatiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Dunyoning yetakchi mamlakatlarida mehnat faoliyatiga mahsuldorlik va natijadorlik baxsh qilishga qaratilgan say-harakatlarning avj olib borayotgani ham ana shu jihat bilan bog'liq¹. Shu boisdan mavzuni tadqiq qilayotganda samaradorlik va taraqqiyot o'rtasidagi aloqadorlikni ochib berish masalalariga alohida to'xtalmoq darkor.

Iqtisodiy taraqqiyot milliy iqtisodiyotning muhim atributlarga egaligini ifodalaydigan tushunchadir. Bunda uning mahsuldorligi va barqarorligi darajasi diqqat markazida turadi. Ushbu tushuncha yordamida iqtisodiy imkoniyatlar bilan kishilarning ehtiyojlari o'rtasidagi mutanosiblik baholanadi: bunday mutanosiblikning mavjudligi ravnaq belgisi, undan mosuvollik esa tanazzul yoxud turg'unlik ifodasi sifatida tavsiflanadi. Muttasil ravishda iqtisodiy jihatdan yuksalib borayotgan yurtda nafaqat mahsulot va xizmatlar turlari ko'payadi, balki ularni yaratishga xizmat qiladigan tuzilmalar ham takomil topadi. Oqibatda uning fuqarolarining turmushi mukammallashib boraveradi.

Iqtisodiy rivojlanishning bir qator *omillarga* keladigan bo'lsak, ularning ayrimlari iqtisodiy ravnaqqa bevosita ta'sir ko'rsatsa, boshqalari unda bilvosita iz qoldiradi. Muhim omillar haqida to'xtalganda birinchi navbatda *ishchi kuchi miqdori va sifatini* tilga olmoq lozim. Kundalik hayotda yoxud ilmiylikdan yiroq publitsistik materiallarda mamlakatning 16 yoshdan 60 gacha bo'lgan hamma fuqarolari ishchi kuchi sifatida ta'riflanadi. Iqtisod ilmi nuqtai nazaridan esa "ishchi kuchi" deganda inson emas, uning mehnat qobiliyatlari yig'indisi nazarda tutiladi. "Ishchi kuchi, insonning mehnat

¹ Qarang: Чернова А.И. Пути повышения производительности труда на предприятии.// Новый университет. Серия "Экономика и право", 2016, №11-2.- 79-81-с.

qobiliyati - bu uning ehtiyojlari, jismoniy, intellektual va tashkilotchilik qobiliyatlari, moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish jarayonida qo'llaniladigan ko'nikma va tajribalari yig'indisidir"². Uning holati va sifati mehnat faoliyati bilan shug'ullanish imkonidan bahrali kishilar bilim saviyasi, ko'nikma va malakalari xarakteri bilan belgilanadi. Bu malakalarni chuqur o'zlashtirgan kishilar salmog'i ortgani sayin iqtisodiyotni yuksaltirish va raqobatbardoshligini ta'minlash imkoniyatlari oshadi.

Ravnaqning yana bir omili mavjud *tabiiy resurslar* hajmi bilan bog'liq. "Ma'lumki, tabiiy resurslar deganda tirik va notirik tabiatga oid bo'lgan va insonning moddiy hamda madaniy ehtiyojlarini qondirish maqsadida ishlatiladigan obyektlar, tabiiy muhit elementlari nazarda tutiladi. Bu resurslarning ayrimlari (masalan, minerallar, yer resurslari) tiklanmas, boshqalari (o'simliklar va hayvonot olami bilan bog'liq resurslar) tiklanuvchan hisoblanadi. Tabiiy resurslarning yana bir turi (ekin maydonlari, o'rmonlar, suv resurslari) to'liq tiklanmaydigan (ya'ni iste'mol maromidan sustroq tiklanadigan) obyektlar turkumiga kiritiladi"³. Resurs ravnaqni ta'minlashga qodir fundamental omillardan biridir: qaysi tarmoq, sektor, soha, jabha bo'lmasin, yetarli resurslar bilan ta'minlanganidagina ravnaq topadi. Masalan, ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladigan resurslarning yetarliligi ularni yetkazib berish bilan mashg'ul tarmoqlarni ham, ular asosida mahsulot yaratayotgan sohalarni ham, ularni eksport qilishga moslashgan jabhalarni ham takomil toptiradi. Qulay iqlim sharoiti, unumdor tuproq qishloq xo'jaligi rivojiga, go'zal tabiat manzaralari esa turizm industriyasi ravnaqiga xizmat qiladi. Biroq, tabiiy resurslarning shunchaki mavjudligi har doim ham iqtisodiy rivojlanishni kafolatlayvermaydi. Buning uchun ularni samarali boshqarish va oqilona sarflash zarur. Resurslar isrofi yoki uquvsiz sarfi oxir-oqibatda iqtisodiyotning qaysidir resurslarga qaramligini kuchaytiradi.

Iqtisodiy ravnaq *moliyaviy kapitalni* taqozo etadi. Moliyaviy kapital jamiyatda faoliyat ko'rsatayotgan kompaniyalar, banklar va investorlarning daromad olish uchun

² Qarang: Какушкина М. А. О трактовке экономической категории "рабочая сила".// Социально-экономичес-кие явления и процессы, 2009, №4.- 61-с.

³ Omonov B. Ekologik globallashuv va uning O'zbekistondagi ekologik muhitga ta'siri.- T.: Voris-nashriyot,2021.- B.21.

iqtisodiyotga sarmoya sifatida kiritishi mumkin bo'lgan mablag'lari miqdoridan tarkib topadi. Odatda u turli investitsiyalar, aksiyalar, obligatsiyalar, depozitlar va boshqa moliyaviy vositalarda o'z ifodasini topadi⁴. Iqtisodiy yuksalishning moliyaviy imkoniyatlar bilan bog'liqligini isbotlab o'tirish ortiqcha bo'lsa kerak. Zaruriy moliyaviy imkoniyatlardan foydalana bilgan korxonagina o'z funksiyalarini muvaffaqiyatli ado eta oladi. Bunday imkoniyatlarni bebahra sarflamagan mamlakatda esa uzoq muddatli strategik dasturlarni mablag'lar bilan yetarli darajada ta'minlash, ravnaq sur'atlarini jadallashtirish imkoni hosil bo'ladi.

Nihoyat, iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlovchi yana bir omil *innovatsion texnologiyalardir*. U har qanday faoliyatning mazmuni va maromini, uslubi va tartibini o'zgartirishga xizmat qiladi. Shu tariqa jamoaning ishlab chiqarish bilan bog'liq imkoniyatlarini benihoya kengayadi. Bunday texnologiyalar keng tatbiq etilgani sayin mavjud resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlari ko'payib boradi. Uning sharofati bilan mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan ish vaqti sezilarli darajada kamayadi. U jamoaning turli sohalarga sarflayotgan sarf-xarajatlari hajmini jiddiy kamaytirishda ham qo'l keladi. Shu sababdan ushbu texnologiyalar o'zlashtirilgan ekan, yurtning texnik imkoniyatlari o'sib boradi, uning ishlab chiqarish bilan bog'liq salohiyati kengayadi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida, yuqorida aytib o'tilgan omillarning barchasidan oqilona foydalanilayotganiga amin bo'lamiz. Ularda mehnat qilishga qodir bo'lgan kishilarning qobiliyatlari iqtisodiy funksiyalarni bajarishning markaziy manbalaridan biri sifatida tan olinadi. Shunday nuqtai nazardan kelib chiqqan holda ishladigan xodimlarning ma'lumoti va mahoratini yuksaltirishga katta e'tibor beriladi. Shu maqsadda tashkil qilingan minglab o'quv markazlar, o'quv kurslarning faoliyat ko'rsatayotgani fikrimizning yorqin isbotidir.

Korxonalaridagi mehnat samaradorligi mehnatning unumdorligi, mehnatning natijadorligi, mehnatning foydalilik darajasi hamda umumiy manfaatlarga xizmat qilishi

⁴ Qarang: Додонова И.В. Сущность и факторы развития современного финансового капитала.// Вестник Оренбургского государственного университета, 2004, №8.- 48-52-с.

bilan belgilanadi. Mazkur mehnta mahsuldorligi va natijadorligi, eng avvalo, unga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj bilan o'zaro bog'liqdir. Shu bilan bir qatorda, yaratilgan mehnat sharoitlari, xodimlarning rag'batlanish darajasi hamda kasbiy malakasi ham samaradorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Jamiyatdagi korxonlarda mehnat jarayonining oqilona tashkil etilishi, uning salohiyatli va tajribali rahbar tomonidan samarali boshqarilishi faoliyat unumdorligi hamda natijadorligining barqarorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov Q.X. "Mehnat iqtisodiyoti". -T.: "Mehnat", 2004 y. -398 b.
2. "O'zbekiston-2030" strategiyasi. 11.09.2023 y.
3. Tolametova Z.A. Mehnat unumdorligini oshirishda ta'lim tizimining o'ri. Iqtisodiyot va moliya/Экономика и финансы. 2013. №8. 42-b.
4. Tuxtabaev. J.Sh. Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini omilli tahlil qilish uslubi. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2016 yil.
5. Мюллер Д.К. "Англо-русский словарь". М.: "Русский язык", 1992. –с. 233-234.
6. Костин Л.А. Производительность труда технический прогресс. -М.: Экономика, 1994. –с. 82.